Annotatsiya: Maqolada mahalla tizimi kesimida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talabini modellashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi hamda daromad va narxlar, demografik, madaniy hamda mavsumiy omillarning talablarga ta‘siri bo‘yicha xorijiy va milliy yondashuvlar umumlashtiriladi. 2020–2025-yillar uchun shartli prognozlarni ishlab chiqish uchun daromad/narx egiluvchanligi va me‘yoriy (tibbiy ratsion) yondashuv bilan talab funksiyasi birlashtiriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bug‘doyga bo‘lgan talab narx-navoga sezgir, ammo daromadga nisbatan egiluvchan, guruch va kartoshka kamayib borayotgan bir paytda parrandachilik, sut mahsulotlari va tuxum ulushi ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, mahalla, iste‘mol talabi, elastiklik, normativ me‘yor, daromad, narx.

Abstract: The article examines the issue of modeling household demand for food products within the mahalla system. Foreign and national approaches are summarized regarding the impact of income and prices, as well as demographic, cultural, and seasonal factors on demand. To produce conditional forecasts for 2020–2025, demand functions are integrated using income/price elasticity and a normative (medical diet) approach. The results show that wheat demand is price-sensitive but income-elastic, while the share of poultry, dairy products, and eggs is increasing as rice and potato consumption declines.

Key words: food security, mahalla, consumer demand, elasticity, normative standard, income, price.

Аннотация: В статье рассматривается проблема моделирования потребительского спроса населения на продовольственные товары в разрезе махаллинской системы. Обобщены зарубежные и национальные подходы к исследованию влияния доходов и цен, а также демографических, культурных и сезонных факторов на спрос. Для разработки условных прогнозов на 2020–2025 годы объединяются функции спроса с учетом эластичности по доходам и ценам, а также нормативного (медицинского рациона) подхода. Результаты показывают, что спрос на пшеницу чувствителен к ценам, но эластичен по доходам, тогда как по мере снижения потребления риса и картофеля растет доля мяса птицы, молочных продуктов и яиц.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, махалля, потребительский спрос, эластичность, норматив, доход, цена.

KIRISH

Global iqtisodiy jarayonlar rivojida oziq-ovqat xavfsizligi hamda aholining turmush darajasi barqarorligini ta‘minlash davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi eng muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi mahalla tizimida turli o‘zgarishlar amalga oshirildi [1,2]. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) prognozlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj 2030-yilga kelib 60 foizga, 2050-yilda esa qariyb ikki baravarga ortishi kutilmoqda. Bu esa jahon miqyosida ishlab chiqarishni 2030-yilda kamida 42 foizga, 2050-yilda esa 70 foizga oshirish zarurligini ko‘rsatadi [3,4].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma‘lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo aholisi soni 2020-yildan buyon qariyb 42 million kishiga, shu jumladan, O‘zbekistonda qariyb 4 million nafarga ortdi. Mos ravishda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 2020–2024-yillarda oshdi. Natijada, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM deyarli ikki baravar o‘tdi. Boshqa tomondan, daromadlarning ortishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning sezilarli ravishda kuchayishiga olib keldi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda oziq-ovqat narxlarining keskin oshishi talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat zaiflashib borayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilda dunyo aholisi soni 9,8 milliardga, 2100-yilda esa 11,2 milliardga yetadi. Ushbu demografik o‘sish jarayoni oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining yanada keskinlashishiga olib kelishi kutilmoqda.

O‘zbekistonda mahalla tizimi aholining turmush tarzi, iste‘mol xatti-harakatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini chuqur o‘rganish uchun ishonchli institutsional asos sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan, mahalla darajasida oziq-ovqat

mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talabini modellashtirish davlat iqtisodiy siyosatida manzilli yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining oziq-ovqat xavfsizligi va turmush darajasi barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talabi va ta‘minlanganligi masalalari xorijiy olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti va raqobat muhiti mezonlari asosida keng o‘rganilgan. Jumladan, E. J. Russel, M. Behnassi [5], S. Draggan, S. Yaya [6], B. G. Putiyevkiy [7], J. A. Ye. Kulikova [8], I. Baskakova [9] va boshqa tadqiqotchilar [10–12] ilmiy ishlanmalarida aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini shakllantiruvchi omillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish mexanizmlari hamda uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish xususiyatlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda, shuningdek, oila daromadlari va aholi soni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekonometrik modellar asosida baholangan, uy xo‘jaliklari daromadlarini hisobga olish, statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash metodlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, transformatsiya jarayonidagi iqtisodiyot sharoitida uy xo‘jaliklari funksiyalarini samarali amalga oshirish yo‘llari asoslab berilgan.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari, iste‘mol odatlari va daromadlarining o‘sishi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, B. Berkinov [13], A. S. Soliyev [14], Sh. M. G‘aziyev [15]larning ilmiy ishlari mahalla tizimi, uy xo‘jaliklari faoliyati va ularning daromadlarini ko‘paytirish yo‘llarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ularning izlanishlarida oilalarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol me‘yorlarini hisobga olgan holda talab va taklifni baholash hamda prognozlash masalalariga e‘tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iste‘mol bozorining barqaror rivojlanishi, eng avvalo, talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash hamda aholi talab darajasini aniq belgilagan holda iste‘mol tovarlari taklifini (ishlab chiqarishni) doimiy ravishda muvofiqlashtirib borishni talab etadi. Amaliyotda aholining iste‘mol talabi uning soni va daromadlari dinamikasi bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi. Bu esa bozordagi narx o‘zgarishlarini kuzatish, ishlab chiqarish uchun zarur resurslarni taqsimlash va tartibga solish imkoniyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalla darajasida aholi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talabini aniqlash bir qator iqtisodiy maqsadlarga xizmat qiladi. Jumladan, uy xo‘jaliklari rivojlanishining istiqbollari baholash, ishlab chiqarish resurslariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, oilalar daromadlari va xarajatlari tarkibini prognozlashda ushbu metodologik yondashuv muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, B. Berkinov tomonidan taklif etilgan normativ usul amaliy jihatdan ham sodda, ham ilmiy asoslangan yondashuv sifatida e‘tirof etiladi [16]. Ushbu usul aholining minimal iste‘mol budjetini hisoblash hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni aniqlash uchun samarali mexanizm hisoblanadi.

Aholi daromadlari o‘sishi va turmush sifatining yaxshilanishi bilan iste‘mol ratsionida sifat jihatidan tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Oqibatda, aholining katta qismi asta-sekin ratsional tibbiy me‘yorlar asosida belgilangan hajmda va tarkibda ovqatlanishga o‘tadi. Bu holat iste‘mol nazariyasida daromad va narxlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi orqali tushuntiriladi. Mahalla tizimida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini modellashtirish iqtisodiy tahlil va amaliy siyosat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday modellashtirish orqali mahalliy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi daromadlari darajasini hisobga olgan holda iste‘mol strukturasi shakllantirish, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish imkoniyati vujudga keladi [18].


Daromadlarning jamg‘arma shakli, bir tomondan, uy xo‘jaligining ehtiyojlarini uning a‘zolari imkoniyatlari bilan bog‘lasa, ikkinchi tomondan oiladagi har bir kishining ehtiyojlari qanchalik qondirilayotganini nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, qishloq uy xo‘jaliklarida daromadlarning moliyaviy resurslar sifatida shakllanishi va ularni taqsimlash funksiyalarining amal qilishi alohida ahamiyatga ega.

Har qanday toifadagi uy xo‘jaligida moliyaviy resurslar sifatida daromad yaratilishiga va ulardan foydalanishga olib keluvchi, qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlari amalga oshirilishi mumkin.

Mahalla tizimida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi bir nechta omillar ta‘sirida shakllanadi. Uy xo‘jaliklari daromadlari ortishi bilan sifatli, yuqori narxli mahsulotlarga talab o‘sadi. Kam ta‘minlangan oilalarda esa iste‘molning asosiy qismini arzon, asosiy ehtiyoj mahsulotlari tashkil etadi. Bozor sharoitida narxlarning o‘zgarishi iste‘mol hajmiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Oila tarkibi, yosh guruhlari tarkibi, mehnatga layoqatli aholining ulushi talab hajmini belgilab beradi. Milliy taomlar va qadriyatlar iste‘mol tarkibida muhim o‘rin tutadi. Sabzavot, meva, sut va go’sht mahsulotlari iste‘molida mavsumiy tebranishlar mavjud bo‘ladi.

Mahalla aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini matematik modellashirishni ko'rib chiqaylik. Bunda quyidagi omillar ta'sir qiladi (1-rasm).

Mahalla tizimida oziq-ovqat mahsulotlariga talab funksiyasi modeli



Ko'p hollarda talab funksiyasini klassik holda ifodalash mumkin. Mahalla aholisi daromadlari va narxlar asosida talabni baholash modeli:

$$Q_d = a + bY - cP$$

ko'rinishda hisoblanadi.

Bu yerda:

Q_d – talab qilinayotgan oziq-ovqat miqdori,

Y – o'rtacha uy xo'jaligi daromadi,

P – oziq-ovqat narxi,

a, b, c – empirik koeffitsiyentlar.

Ushbu model orqali, masalan, don mahsulotlari narxi 5% ga va uy xo'jaligi daromadi 10% ga oshsa, talabning qanday o'zgarishini hisoblash mumkin.

Eng kam iste'mol budjeti modeli (normativ yondashuv) modellashirish. Aholining minimal ovqatlanish ehtiyojini ratsional me'yorlarga asoslab baholash quyidagicha ifodalanadi:

$$Q_i = N_i K$$

Bu yerda:

Q_i – i-mahsulot bo'yicha yillik ehtiyoj (kg),

N_i – tibbiy me'yor (masalan, go'sht – 42 kg/odam/yil),

K – aholining soni (mahalla bo'yicha).

Daromadga bog'liqlik modellarida aholi va daromadlarning o'sishi ekzogen, narxlar esa endogen hisoblanadi. Masalan, iste'molchi daromadi oshishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi uchun daromad egiluvchanligi pasayib borishi haqida juda ko'p dalillar mavjud. Bu munosabatlar Engel qonuni deb nomlanadi. Shu sababli modellar mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab turli xil daromad egiluvchanlik qiymatlariga ega bo'lishi kerak. Engel qonuniga ko'ra, daromad oshgan sari oziq-ovqatga sarflanadigan ulush kamayadi.

$$E_j = \frac{C_j}{Y}$$

bu yerda:

E_j – oziq-ovqat xarajatlarning daromadga nisbati,

C_j – oziq-ovqat xarajatlari,

Y – umumiy daromad.

4. Jon boshiga oziq ovqatga talab funktsiyasi standart yondashuvda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va barcha narxlar vektori funktsiyasi sifatida ifodalanadi. Bunda real narxlar oziq-ovqat talabining yana bir muhim omili hisoblanadi. Tovarlarining yuqori narxlar mahalla oziq-ovqat iste'moliga bevosita ta'sir qiladi[], yakuniy mahsulotlar uchun iste'mol tanloviga ham ta'sir qiladi[]. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab quyidagicha hisoblanadi:

1 Hugo Valin and other. The Future of Food Demand: Understanding Differences in Global Economic Models. Article in Agricultural Economics · January 2014 DOI: 10.1111/agec.12089 <https://www.researchgate.net/publication/258883059>

$$D_{r,c,t} = Pop_{r,t} \left(\frac{Y_{r,t}}{Pop_{r,t}} \right)^{\delta_{r,s,t}} \prod_c (P_{r,c,t})^{\varepsilon_{r,c,t}}$$

Bu yerda,

D - t yilda r hududda c mahsulotga oziq-ovqat talabi,

Pop - aholi,

Y - jami daromad,

P - tovar narxlari vektori,

ε - tovarga xos daromad egiluvchanligi,

δ - o'z bahosi matritsasi va IMPACT uchun, shuningdek, narxlarning o'zaro egiluvchanligi²³

Ushbu model uy xo'jaligining heterojenligini ta'minlash uchun osongina sozlanishi mumkin. Bu vaqtga (IMPACT, GCAM) yoki daromad evolyutsiyasiga qarab ekzogen tendentsiyaga ega bo'lish orqali amalga oshiriladi.

Narx yoki daromad o'zgarishiga talabning sezgirligini aniqlash:

$$E_p = \frac{\frac{\Delta Q}{Q}}{\frac{\Delta P}{P}}, E_y = \frac{\frac{\Delta Q}{Q}}{\frac{\Delta Y}{Y}}$$

bu yerda:

E_p – narx elastikligi,

E_y – daromad elastikligi.

Agar uy xo'jaligi daromadi 5 mln so'm bo'lsa va oziq-ovqat uchun 2 mln so'm sarflasa, $E_j=0,4$ ga teng, ya'ni 40%ni tashkil qiladi. Bunda go'sht narxi 10% oshsa va talab 5% kamaygan bo'lsa, $E_p = -0,5$.

5. Mahalla hududlari uchun talabni prognozlash uchun regressiya modelidan ham keng foydalaniladi. Bunda aholi oziq-ovqat iste'molini vaqt va omillar bo'yicha prognozlashda quyidagi model orqali hisoblanadi:

$$Q_t = \alpha + \beta_1 Y_t + \beta_2 P_t + \beta_3 D_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

Q_t – t-vaqtdagi iste'mol hajmi,

Y_t – daromad,

P_t – narx,

D_t – demografik ko'rsatkich,

ε_t – xatolik.

Jamiyatning oziq-ovqat iste'moli turli xil omillar ta'sirida shakllanadi. Biroq, asosiy determinantlar sifatida daromad darajasi hamda oziq-ovqat va ovqatlanish haqidagi bilimlar alohida ajralib turadi. O'zbekistonda aholi iste'mol modelida bug'doy, kartoshka va guruch asosiy oziq-ovqat mahsulotlari sifatida ustunlik qilmoqda. Ya'ni, bu mahsulotlar turli darajadagi ijtimoiy qatlamlarda, ayniqsa shaharlarda eng ko'p iste'mol qilinadigan oziq-ovqat turlari hisoblanadi. So'nggi yillarda aholining o'sishi va daromadlarining ortishi chorvachilik mahsulotlariga, xususan, tovuq go'shti va tuxumga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib keldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2025-yillar oralig'ida jon boshiga guruch va kartoshka iste'moli sezilarli darajada kamaygan bo'lsa, bug'doydan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan iste'mol hajmi ortgan. Bu esa aholining iste'mol imtiyozlari muntazam ravishda o'zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Oziq-ovqat narxlaridagi o'zgarishlar ham imtiyozlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Talab qonuniga muvofiq, narxlarning oshishi iste'mol hajmining qisqarishiga, aksincha, narxlarning pasayishi esa iste'molning ortishiga olib keladi. Shuningdek, aholi daromadlarining oshishi yuqori sifatli va kaloriyasi yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Yuqori daromad guruhidagi iste'molchilar odatda uglevodlarga boy mahsulotlarni afzal ko'radilar.

Biroq, aholining oziq-ovqat iste'mol qilish odatlarini qisqa muddatda o'zgartirish oson emas. Ovqatlanish imtiyozlariga narxlar, daromad darajasi, uy xo'jaligi tarkibi, oilaning demografik xususiyatlari (yosh, jins, mehnat faoliyati bilan bandlik) bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, tezkor turmush tarzi va urbanizatsiya jarayonlari natijasida an'anaviy oziq-ovqat iste'moli asta-sekin qisqarib, tayyor ovqatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

2 Neither GCAM nor GLOBIOM have cross-price effects in their standard versions. Further, GCAM has only own-price effects in the livestock sectors with limited cross substitution across crops, using a logit choice function. Some cross-price substitution effects can be obtained in GLOBIOM using an extended version of the model with a hard-link to a nonlinear demand module (Valin et al., 2010).

Mamlakatimizda mahalla tizimini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa mahallalarda yashovchi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan qisqa muddatli talabini prognozlash va baholashning katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu jihatdan, respublika aholisining 2025-yil ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi prognoz qilindi (1-jadval).

1-jadval. Respublika aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi (2025-yil)

Mahsulot turi	2020-yil (kg/odam)	2025-yil prognoz (kg/odam)	O'sish/kamayish (%)
Bug'doy	180	195	+8,3
Guruch	43	38	-11,6
Kartoshka	82	70	-14,6
Mol va qo'y go'shti	22	25	+13,6
Tovuq go'shti	25	35	+40,0
Tuxum (dona)	190	225	+18,4
Sut va sut mahsulotlari	260	290	+11,5
Sabzavotlar	100	115	+15,0
Mevalar	75	90	+20,0

Bug'doy va undan tayyorlanadigan mahsulotlarga talab yuqoriligicha qolmoqda, chunki u asosiy oziq-ovqat turi hisoblanadi. Guruch va kartoshka iste'moli pasayib bormoqda, chunki ularni qisman boshqa ozuqa manbalari (tayyor ovqat, non mahsulotlari) bosmoqda. Chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa tovuq go'shti va tuxumga talab sezilarli oshmoqda — bu daromadlar ortishi va urbanizatsiya bilan bog'liq. Sabzavot va mevalar iste'moli ortmoqda, chunki sog'lom ovqatlanish odatlari asta-sekin keng tarqalmoqda.


Sayxunobod tumani aholisi (84,3 ming kishi)ning asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji 2-jadvalda berilgan.

2-jadval. Sayxunobod tumani aholisining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji

Mahsulot turi	Aholi jon boshiga (g/kun)	Oylik (kg)	Yillik (kg)	1 kunlik talab (t)	1 oylik talab (t)	1 yillik talab (t)
Kartoshka	305,8	9,2	110,1	25,4	773	9 281
Piyoz	94,7	2,8	34,1	7,9	240	2 875
Sabzi	94,7	2,8	34,1	7,9	240	2 875
Sabzavot	331,1	9,9	119,2	27,5	837	10 049
Meva	223,1	6,7	80,3	18,5	564	6 769
Uzum	72,5	2,2	26,1	6,0	183	2 200
Dukkakli mahsulotlar	9,4	0,3	3,4	0,8	24	287
Poliz	57,8	1,7	20,8	4,8	146	1 753
Guruch	27,2	0,8	9,8	2,3	69	826
Shakar	30,6	0,9	11,0	2,5	77	927
O'simlik yog'i	25,3	0,8	9,1	2,1	64	767
Un	253,1	7,6	91,1	21,0	640	7 680
Go'sht	118,9	3,6	42,8	9,9	301	3 608
Parranda go'shti	39,4	1,2	14,2	3,3	100	1 197
Sut	321,7	9,7	115,8	26,7	813	9 762
Baliq	37,2	1,1	13,4	3,1	94	1 130
Tuxum (ming dona)	580,6	17,4	209,0	48,3	1 468	17 619

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kartoshka respublika aholisining yil davomida eng ko‘p iste‘mol qiladigan mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Yillik talab hajmi qariyb 9,3 ming tonnani tashkil etadi. Sabzavotlar va mevalar aholining ovqatlanish ratsionida muhim o‘rin tutadi. Ularning umumiy yillik talabi mos ravishda 10 ming tonnadan oshadi. Sutning yuqori ko‘rsatkichi aholining oqsil va kalsiy manbalari yetarli darajada bo‘lishini ta‘minlaydi. Un aholining asosiy oziq-ovqat manbai bo‘lib qolmoqda.

Guruch va dukkakli mahsulotlar (3,4 kg/yil) hajmi nisbatan kam bo‘lsa-da, ular aholi ratsionida turli xil ozuqa manbalarini ta‘minlaydi. Shakarga energiya manbai sifatida doimiy ehtiyoj mavjud. Go‘sh, sut va tuxum aholining oqsil qabulida asosiy manba bo‘lsa, baliq iste‘moli nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa respublikada baliq mahsulotlari iste‘moli yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga yillik talabi

Meva iste‘moli yuqoriligi esa aholining ratsionida vitamin va mikroelementlarga ehtiyojini qoplashga xizmat qiladi. Mavsumiy mahsulotlar (sabzavot, poliz, uzum) iste‘molda sezilarli hajmni egallaydi, bu esa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining iqlimiy imkoniyatlari keng ekanini bildiradi.

3-jadval. Sayxunobod tumani mahallalar kesimida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji (2025-yil, 1 yanvar holatiga, tonnalarda)

Mahallalar	Aholi soni	Kartoshka	Piyoz	Guruch	Sabzavot	Meva	Uzum
O‘zbekiston	3,5	387	120	34	419	282	92
Paymart	5,2	573	177	51	620	418	136
Farovon	3,8	416	129	37	450	303	99
Baxmalsoy	5,2	567	176	50	614	414	134
Nurli yul	3,3	362	112	32	392	264	86
Ittifok	6,4	706	219	63	764	515	167
Nurobod	5,2	577	179	51	625	421	137
Paxtaobod	6,7	743	230	66	804	542	176
Olg‘abos	2,9	322	100	29	348	235	76
Turon	3,7	409	127	36	443	298	97
Shodlik	4,1	454	140	40	491	331	108
Gulbuloq	6,4	706	219	63	764	515	167

Do'stlik	4,3	479	148	43	518	349	113
Paxtakon	2,8	308	95	27	333	224	73
Sentob	5,5	604	187	54	653	440	143
Guliston	5,1	562	174	50	608	410	133
Urikzor	3,6	391	121	35	424	285	93
Mustaqillik	2,1	235	73	21	254	171	56
Yangi xayot	4,4	482	149	43	522	351	114

3-advaldan ko'rinib turibdiki, un va sutga talab barcha hududlarda yuqori darajada barqaror. Go'sht va tuxumga talab barcha xududlarda farq qiladi, lekin hamisha o'rtacha yuqori darajada saqlanadi. O'simlik yog'i va baliq mahsulotlariga talab pastroq bo'lib, ayrim hududlarda ancha kam iste'mol qilinadi.

4-jadval. Sayxunobod tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqish prognozi (2025-yil, tonnalarida)

Mahallalar	Aholi soni	Kartoshka	Piyoz	Guruch	Sabzavot	Meva	Uzum
O'zbekiston	3,5	658	166		4800	300	53
Paymart	5,2	985	207	15	897	450	91
Farovon	3,8	723	150	45	471	312	64
Baxmalsoy	5,2	995	221		700	433	98
Nurli yul	3,3	633	164	32	900	270	80
Ittifoq	6,4	1254	225	15	3000	594	87
Nurobod	5,2	987	261		5547	450	25
Paxtaobod	6,7	1359	335	35	1015	603	114
Olg'abos	2,9	560	115	25	2907	312	74
Turon	3,7	678	109	50	687	295	61
Shodlik	4,1	766	155	9	555	335	50
Gulbuloq	6,4	1101	201	65	6525	540	66
Do'stlik	4,3	798	180	55	598	367	62
Paxtakon	2,8	521	197		1008	271	48
Sentob	5,5	987	173	50	740	487	100
Guliston	5,1	998	166	51	2400	550	56
Urikzor	3,6	666	228		505	285	80
Mustaqillik	2,1	398	151	25	5000	200	45
Yangi hayot	4,4	804	178	10757	10781	361	60

4-jadvalda mahalla miqyosidagi 2025-yilda asosiy mahsulot turlarining hajmlari prognozi hisob-kitoblari keltirilgan. Ushbu hajm aholining iste'mol me'yorlariga to'liq mos kelishi bilan ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston aholisining asosiy ratsion manbai non mahsulotlari (un), sut mahsulotlari va tuxum hamda go'sht va parranda mahsulotlaridir. Biroq, baliq mahsulotlari va o'simlik yog'i ratsionida kam ulushga ega. Demak, mamlakat miqyosida oqsilli ozuqa manbalarini diversifikatsiya qilish va baliq/parranda mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish zarur.

Umuman olganda, mahalla aholisi va uy xo'jaliklari daromadlarining barqaror o'sib borishi oilalar turmush sifatini oshirish bilan birga, ularning oziq-ovqat ratsionida sifat jihatdan muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa aholining katta qismini ratsional tibbiy me'yorlar asosida ovqatlanish tizimiga bosqichma-

bosqich o‘tishini ta’minlaydi. Shu bois, aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini aniqlashda nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki tibbiy va ijtimoiy me’yoriy ko‘rsatkichlarga asoslangan prognozlar ishlab chiqish zarur. Bunday yondashuv hududlarda oziq-ovqat xavfsizligi ta’minotini yanada samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022-yildagi ““Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-402-son qarori.
3. FAO, Introduction to the Basic Concepts of Food Security, vol. 1, Social Indicators Survey (2008), pp. 1-3
4. N. Alexandratov, J. Bruinsma. World Agriculture to 2030/2050: 2012 Revision. Surg. Oncol., 30 (1) (1985), pp. 46-51.
5. EJ Russell. World population and world food supply. Routledge, London (1954)
6. M. Behnassi, S. Draggan, S. Yaya. Global food security: rethinking the paradigm and policy of agriculture and rural development, vol. 53, Springer, Springer. London (2008), p. 287
7. Б.Г. Путиевский. Маркетинговое исследование розничного рынка продовольственных товаров // Практический маркетинг, Пермь. - №6. – 1990.
8. Куликова Е.В., Левит С.Р., Сбытова А.С. Доходы домашних хозяйств: показатели, методология, расчеты, источники информации. – М.: Госкомстат РФ, 1995. – 206 с.
9. Баскакова И.В. Функции домашних хозяйств и их реализация в условиях трансформируемой экономики. Автореф. диссер. на соиск. ученой степени к.э.н., Екатеринбург. 1997. – 27 с
10. J.F. Crockett Population Change and the Demand For Food/ www.nber.org/books/univ60.
11. B. Bodirsky, S. Rolinski, A. Biewald, I. Weindl, A. Popp, HL Campen. Global food demand scenarios for the 21st century. PLoS One, 10(11) (2015), pp. 1-27
12. A. Doward. Agricultural productivity, food prices and the implications and implications for sustainable development. Food Pol. , 39 (1) (2013), pp. 40-50.
13. Berkinov, B. (2020). Uy xo‘jaliklari moliyasi va iste‘mol bozori tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
14. Soliyev, A. S. (2021). Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
15. G‘aziyev, Sh. M. (2019). Mahalla tizimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik omillari. Toshkent: Fan va texnologiya.
16. Berkinov B. Mahalla hududida aholini oziq – ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talablarining tahlili va prognozi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnal, 2/2024, mart-aprel, (№ 00070)
17. Kulikova, Ye. V. (2018). Food consumption models in transition economies. Journal of Agricultural Economics, 69(4), 532–547.
18. Shemelev, G. I. (2017). Domashnie xozyaystva i ryok prodovolstviya. Moskva: Nauka.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI